



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
INNOVATSION
RIVOJLANISH VAZIRLIGI

IQTIDORLI TALABALAR, MAGISTRANTLAR, TAYANCH
DOKTORANTLAR VA DOKTORANTLARNING

TAFAKKUR VA TALQIN

MAVZUSIDARESPUBLIKA
MIQYOSIDAGI ILMIIY-AMALIIY
ANJUMAN TO'PLAMI



Бухоро-2021

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OY VA O‘RTA
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
MAGISTRATURA BO‘LIMI**

**IQTIDORLI TALABALAR, MAGISTRANTLAR, TAYANCH
DOKTORANTLAR VA DOKTORANTLARNING**

TAFAKKUR VA TALQIN

mavzusida

**Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy
anjuman to‘plami**

2021 yil, 27-may

Tahrir hay'ati:

O.X.Xamidov	Iqtisodiyot fanlari doktori, professor
M.I.Daminov	Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent
O.S. Qahhorov	Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (DSc), dotsent
S.Q. Qaxxorov	Pedagogika fanlari doktori, professor
D.R. Djurayev	Fizika-matematika fanlari doktori, professor
A.A. Turayev	Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
M.Y. Ergashov	Kimyo fanlari nomzodi, professor
B.N.Navro'z-zoda	Iqtisodiyot fanlari doktori, professor
SH.A. Hayitov	Tarix fanlari doktori, professor
D.S. O'rayeva	Filologiya fanlari doktori, professor
S. Bo'riyev	Biologiya fanlari doktori, professor
SH.R.Barotov	Psixologiya fanlari doktori, professor
SH.SH.Olimov	Pedagogika fanlari doktori, professor
A.R.Hamroyev	Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

Mas'ul muharrir:

A.A. Turayev – magistratura bo'limi boshlig'i *f.-m.f.f.d., (PhD) dotsent*

Musahhih:

T.Sh.Ergashev – ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi bosh mutaxassisi

D.Rahmatova – magistratura bo'limi uslubshunosi

B.A.Hikmatov – magistrant

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24-yanvardagi Oliy majlisga yo'llagan murojatnomasi va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2020 yil 7-fevraldagi 56-F-son farmoyishiga hamda Oliy vao'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021 yil 4-maydagi № 3/19-04/05-26 son xatiga asosan ushbu Respublika ilmiy-amaliy anjuman tashkil etildi. To'plamdaiqtidorli talabalar, magistrantlar, tayanch doktorantlar va doktorantlarningilmiy izlanishlari, tajriba almashish, sohalarda amalga oshirilayotgan ishlarnitahlil qilish va bu boradagi takliflarni ishlab chiqish bo'yicha ilmiy-amaliy vauslubiy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

MUNDARIJA:

I-ШЎБА
АНИҚ ВА ТАБИИЙ ФАНЛАР

5A140202 – Физика (йўналишлар бўйича)

O.X.Xamidov	<i>Muqaddima</i> 3
O.C.Қаҳҳоров, Ш.Ҳ.Тўраев	<i>Олий таълим тизимида рақобатбардош кадрлар тайёрлашнинг бошқарув самарадорлигини баҳолаш</i> 5
S.Q.Qahhorov F.Yo.Ramazonova	<i>Fizika sohasida ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirishning bugungi kundagi amaliy ahamiyati</i> 13
E.S. Nazarov, Sh.O. Sobirov	<i>Elastomeres are molecular of materials structure and macroscopic properties</i> 16
A.A. Тураев, С.М. Рахимова	<i>Фотозэлектрические характеристики полевого транзистора в режиме отсечки канала</i> 21
I.I. Raxmatov, B. Sirojeva	<i>Kristallik va amorf quyosh panellarini qiyosiy solishtirish</i>27
E.S. Nazarov, Sh.A. Hamroqulova	<i>Quyosh energiyasi texnologiyalarini rivojlantirish tendensiyalari va istiqbollari</i> 31
D.R. Djurayev, A.A. Ahadov.	<i>Vodorod energiyasi va o'ta o'tkazuvchanlik</i>34
Sh.Sh. Fayziyev, Sh.Q. Nizomova	<i>Magnit moddalarning domen tuzilishi</i> 39
Sh.Sh. Fayziyev, M.A. Askarov	<i>Paxta moyida yorug'likning yutilish</i> 41
L.I. Ochilov, Z.N. Narzillayeva	<i>Quyosh chuchitgichi xossalari yonilg'i quyish shaxobchalariga qo'llashning matematik modelini hisoblash, algoritmi va dasturiy ta'minot tuzish</i> 44
И. Рахматов, И. Исмоилова	<i>Физика таълим йўналишида мустақил ишларни кредит-модуль тизимида ташкил этиши</i> 48
I.Raxmatov, S. Salimov	<i>Frenel linzasi va uning qo'llanilishi</i> 54
Э.С.Назаров, Ш.О.Собиров, И.И.Пуримов	<i>Композитларнинг техник хоссаларини тадқиқ этиши</i> 60
N.B. Yuldasheva , Sh.Q. Nizomova	<i>Modulated magnetic structures and models of their theoretical expression</i> 65
A.A. Тураев, О.Ж.Жумаев	<i>Кўп функционал датчикларда майдон транзисторларининг қўлланиши</i> 67

<i>M.Ж. Нуридинова</i>	<i>Рецепция русских культурно-исторических кодов в романе а. битова «пушкинский дом»..... 573</i>
<i>Д.А. Муродова</i>	<i>Колоративная лексика в лирике а. фета.....578</i>
<i>А. К. Мусаева</i>	<i>Актуальные подходы к обучению современному русскому языку.....581</i>
5A120102 - Лингвистика: француз тили	
<i>O.I. Adizova, Sh.D. Xolova</i>	<i>Fransuz tilini o'qitishda frazeologik birliklar va ularning turlari ifodasi..... 586</i>
<i>D.B. Narzullaeva</i>	<i>The concept of critical thinking in modern pedagogical science..... 590</i>
<i>N.N. Abdullayeva</i>	<i>Quelques propos sur les proverbes.....594</i>
<i>F. G'aniyev</i>	<i>Masal janrining rivojlanishida fonteyn ijodining o'rni..... 602</i>
<i>Z.S. Saidova</i>	<i>Fransuz tilida o'timsiz fe'llar xususiyati 605</i>
<i>O. Adizova, 3.Бердиева</i>	<i>Methode biographique comme un instrument d'observation du social..... 608</i>
III-ШЎБА ИЖТИМОЙ ГУМАНИТАР ФАНЛАР	
5A111701 – Таълим ва тарбия назарияси ва методикаси (бошланғич таълим)	
<i>I.S. Temirova</i>	<i>Buyuk qomusiy olimlarimiz qoldirgan ilmiy merosdan boshlang'ich sinf tabiatshunoslik darslarida foydalanish..... 612</i>
<i>S.Sh.Muxitdinov</i>	<i>Boshlang'ich sinf o'quvchilari jismoniy rivojlanishining nazariy va amaliy asoslari..... 618</i>
<i>M.Y. Ro'ziyeva L.Q. Salohiddinova</i>	<i>Folklorizm asosida yaratilgan asarlarni o'tish bo'yicha ko'rsatmalar..... 622</i>
<i>D.B. Axmedova, G.R. Mametjumayeva</i>	<i>Boshlang'ich ta'limda xalq maqollari ustida ishlash orqali nutq o'stirish metodikasi..... 630</i>
<i>S.U. Subhonova</i>	<i>Boshlang'ich sinf o'quvchilarini mehnatsevarlikka o'rgatishda xalq og'zaki ijodining o'rni 633</i>
<i>M.R.Baxramova</i>	<i>Modulli texnologiyalardan foydalanish orqali ta'limni tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari..... 637</i>
<i>A. P. Xамроев, H. Ў. Жўраева</i>	<i>Она тили таълимида ўқувчиларнинг ижодий фаолиятини лойиҳалаштиришида сифат ва самарадорлик.....641</i>
<i>F.B. Ne'matova</i>	<i>Loyihalash – ta'lim berishning muhim shartlardan biri..... 658</i>

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA XALQ MAQOLLARI USTIDA ISHLASH ORQALI NUTQ O'STIRISH METODIKASI

D.B. Axmedova¹, G.R. Mametjumayeva²

BuxDU katta o'qituvchisi, f.f.f.d (PhD)¹

BuxDU magistranti²

Annotatsiya: Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqini maqollar bilan boyitish va boshlang'ich sinf darsliklaridagi maqollarning o'rni hamda maqollarda ifodalangan g'oyalarning boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun foydali tomonlari yoritib berilgan.

Maqol – xalq og'zaki ijodining eng sermazmun va serqirra janri bo'lib, xalqning donoligi, donishmandligini ko'rsatib beruvchi eng qisqa va lo'nda asardir.

Maqollarda avlod-ajdodlarning hayotiy tajribalari, jamiyatga munosabati, tarixi, ruhiy holati, etik va estetik tuyg'ulari hamda ijobiy fazilatlari mujassamlashgan.

Maqollarning mavzu jihatdan xilma-xilligi tilimizning serqirraliligi uchun xizmat qilibgina qolmay, uning ta'sirchanligi, inson hayoti uchun kerakli bo'lgan hayotiy xulosalarning keltirilishi uchun ham xizmat qiladi.

Turkiy tilli xalqlar hayotida maqollar ilk bor Mahmud Qoshg'ariyning “Devonu lug'otit turk” asarida keltirilgan. Maqollar tilimizda turli xil nomlar bilan yuritiladi: zarbulmasal, naql, hikmat, hikmatli so'z, tanbeh, donishmandlar so'zi, otalar so'zi kabi nomlar bilan ham yuritiladi.

Boshlang'ich sinf darsliklarida xalq og'zaki ijodining turli xil namunalari bilan bir qatorda maqollar ham o'z ifodasini topgan. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun chiqarilgan “O'qish” va “Ona tili” kitoblarida maqollar keltirilgan. Ular har bir mavzudan keyin, shu mavzuga mos tarzda tanlangan, xulosalash vazifasini bajarib kelgan. Ba'zi darsliklarda xalq og'zaki ijodi namunalari bo'limida alohida “Maqollar” mavzusi berilgan.

1-sinf “O‘qish” darsligining birinchi mavzusidan boshlab maqol namunasi kiritilgan: “Ona yerning tuprog‘i ona sutidek aziz”(1-sinf, 4-bet).

“Vatan” mavzusidan keyin keltirilgan maqol o‘quvchilarda vatanparvarlik ruhini kamol toptirib uni rivojlantiradi, shuningdek, mazkur darslikda vatanparvarlik mavzusidagi quyidagi maqollarni ham uchratamiz:

- Ona yurtning omon bo‘lsa, rangi ro‘ying somon bo‘lmas.
- Vatansiz inson – kuysiz bulbul.
- Ona yurtning – oltin beshiging.
- Vatani borning baxti bor.
- Baliq suv bilan tirik, odam – el bilan.
- Vatan sevgisi ortar, mehnat sevgisi tortar.
- Ayrilmagin elingdan, quvvat ketar belingdan.
- Vatanning tinch – sen tinch.

Bilim haqidagi maqollar:

- Kitob – bilim bulog‘i, o‘quvchining o‘rtog‘i.
- Bilimdan ortiq boylik yo‘q.
- Aqilning qayrog‘i – bilim.
- Ilm olsang dunyoda, aqling bo‘lar ziyoda.
- Yaxshilik qilsang, yaxshilik ko‘rasan.
- Chumchuq so‘ysa ham qassob so‘ysin.
- Yengil oyoq uzoqqa qochar, yengil bosh tuzoqqa tushar.

2-sinf o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan “O‘qish” kitobi ham maqollarga boy. 2-sinf o‘quvchilari maqol haqida nazariy ma’lumotga ega bo‘lishlari uchun quyidagi ta’rif keltirilgan: **“Maqollar xalq og‘zaki ijodiga kiradi. Odamlar hayotda ko‘rgan-kechirganlari asosida maqollarni yaratadilar. Maqollar kichik hajmda bo‘lib, pand-nasihati mazmunini ifodalaydi”.** (2-sinf darsligi, 45-bet).

Shuningdek, darslikda turli xil mavzudagi ertak, hikoyalardan so‘ng o‘quvchilar ularning mazmunini chuqurroq anglab olishlari uchun maqollar

keltiriladi. Bunda maqollar bolalarning asar bilan tanishib, undan to'g'ri xulosa chiqarishlari va eng muhimi o'zlarining og'zaki nutq zaxiralarini boyitishlariga xizmat qiladi. Maqollarni alohida bir dars sifatida o'rgatish uchun mavzular ajratilmagan, ammo maqollarning barcha mavzularda berilishi o'quvchilar nutqini maqollar bilan boyitish uchun yetarlidir.

Vatanparvarlik, ilm egallash, do'stlik, mehnatsevarlik, dangasalik, tinchlik, ona, yaxshilik va yomonlik haqidagi maqollar barcha darsliklarda aks etgan. Maqollar boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqini boyitish va jozibali qilishning eng samarali vositasidir. O'zbek xalq maqollaridan foydalangan holda mashg'ulotlarni tashkil qilishda erishilgan yutuqlar yosh avlod nutqida va dunyoqarashida sezilarli namoyon bo'ladi.

Har bir maqol o'quvchilar tomonidan shunchaki yod olinishi va uni yoddan aytishni talab qilmasdan, maqoldagi har bir so'z, har bir jumla ustida tahlil ishlarini amalga oshirish lozim. Masalan:

**“Yaxshi bo'lsang, o'zarsan,
Yomon bo'lsang, to'zarsan”.**

Yuqoridagi maqolda yaxshi va yomon odamlar haqidagi fikrlar keltirilgan. Maqolning mazmunini o'quvchilar tushunib olishlari uchun yaxshi va yomon insonlar qanday bo'lishi haqida suhbat tashkil etish, o'quvchilar fikri bilan tanishib so'ngra ularni umumlashtirib eng ma'qul javoblarni rag'batlantirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Yaxshi insonning hayoti davomida erishadigan yutuqlari tushuntirilib, hayotiy misollar keltiriladi. Yomon insonning hayoti davomidagi yo'qotishlari haqida aytilib, farqlar taqqoslanadi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, maqollarni o'rganish inson tilining serqirraliligi va uning jozibadorligini oshirganligi sababli boshlang'ich sinf darsliklarida o'zining yuksak o'rniga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Zunnunov A., Esonov J. Maktabda adabiyot o'qitish metodikasi. Toshkent: O'qituvchi, 1985.
2. Ahmedova N. Boshlang'ich sinflarda nutq o'stirish usullari. // Ta'lim jarayonida nutq madaniyatini takomillashtirish masalalari. «O'zbek tili» doimiy anjumani 5-yig'ilishi tezislari to'plami (1999-yil 29-30-aprel) – Toshkent: «Sharq».
3. Фуломов А., Қобилова Б. Нутқ ўстириш машғулоти. – Тошкент: «Ўқитувчи».
4. Roziqov O., Mahmudov M., Adizov B., Hamroyev A. Ona tilididaktikasi. – Toshkent: «Yangi asr avlodi».